



## IQTISODIY TARMOQ KORXONALARIDA ALOHIDA HISOB SIYOSATINI YURITISHNING O'ZIGA XOSLIGI VA ILMIY YONDASHUVLARI

*PhD Qodirov Jasurbek*

*"O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyati*

*ORCID: 0009-0003-1710-7648*

*[bek-maf@mail.ru](mailto:bek-maf@mail.ru)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada iqtisodiy tarmoqlarda alohida hisob siyosatini yuritishning nazariy va amaliy jihatlari, uning xalqaro va milliy standartlarga moslashuvi hamda sohaga xos yondashuvlarning ahamiyati yoritilgan. O'zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot tizimini isloh qilish, xususan IFRS standartlarini bosqichma-bosqich joriy etish jarayonlari tahlil qilingan. Tadqiqotda qishloq xo'jaligi, sanoat, xizmat ko'rsatish va bank-moliya sektorlarida hisob siyosatining o'ziga xos xususiyatlari, muammolar va imkoniyatlar ko'rib chiqilgan. Xalqaro va milliy tajribalar qiyoslanib, sohaga mos metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** alohida hisob siyosati, IFRS, BHMS, moliyaviy hisobot, xalqaro standartlar, milliy standartlar, hisob siyosati, korxonalar hisob siyosati, xizmat ko'rsatish, bank-moliya, ishlab chiqarish.

## ОСОБЕННОСТИ И НАУЧНЫЕ ПОДХОДЫ К ВЕДЕНИЮ ОТДЕЛЬНОЙ УЧЕТНОЙ ПОЛИТИКИ В ПРЕДПРИЯТИЯХ ЭКОНОМИЧЕСКОГО СЕКТОРА

*PhD Кодиров Жасурбек*

*Акционерное общество «Узбекистан темир йуллари»*

**Аннотация.** В данной статье освещены теоретические и практические аспекты ведения отдельной учетной политики в экономических отраслях, её адаптация к международным и национальным стандартам, а также значимость отраслевых подходов. Проанализированы процессы реформирования системы бухгалтерского учета и финансовой отчетности в Республике Узбекистан, в частности, поэтапное внедрение стандартов МСФО. В исследовании рассмотрены особенности, проблемы и возможности учетной политики в сельском хозяйстве, промышленности, сфере услуг и банковско-финансовом секторе. Сопоставлен международный и национальный опыт, разработаны методические рекомендации, адаптированные к отрасли.

**Ключевые слова:** отдельная учетная политика, МСФО, НСБУ, финансовая отчетность, международные стандарты, национальные стандарты, учетная политика, учетная политика предприятия, сфера услуг, банковско-финансовый сектор, производство.

## SPECIFIC FEATURES AND SCIENTIFIC APPROACHES TO MAINTAINING A SEPARATE ACCOUNTING POLICY IN ENTERPRISES OF THE ECONOMIC SECTOR

PhD Kadirov Jasurbek

“Uzbekistan Railways” Joint Stock Company

**Abstract.** *This article highlights the theoretical and practical aspects of maintaining a separate accounting policy in economic sectors, its adaptation to international and national standards, and the importance of sector-specific approaches. The processes of reforming the accounting and financial reporting system in the Republic of Uzbekistan, in particular the gradual implementation of IFRS standards, are analyzed. The study examines the specific features, challenges, and opportunities of accounting policies in agriculture, industry, services, and the banking-finance sector. International and national practices are compared, and methodological recommendations tailored to the sector are developed.*

**Keywords:** *separate accounting policy, IFRS, NAS, financial reporting, international standards, national standards, accounting policy, enterprise accounting policy, services, banking-finance, manufacturing.*

### Kirish.

Global iqtisodiy integratsiya jarayonida moliyaviy axborotning shaffofligi va taqqoslanishi har bir mamlakat uchun ustuvor vazifa bo'lib bormoqda. Shu bois, iqtisodiy tarmoqlarning alohida hisob siyosatini shakllantirish va yuritish masalasi nafaqat amaliy, balki nazariy jihatdan ham dolzarbdir. Hisob siyosati korxonaning moliyaviy hisobotlarini tayyorlashda qo'llaniladigan tamoyillar, usullar va qoidalar majmui sifatida iqtisodiy natijalarni to'g'ri aks ettirishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni xalqaro standartlarga moslashtirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Prezident qarorlari va Moliya vazirligining me'yoriy hujjatlari asosida bir qator tarmoqlar uchun IFRS standartlari bosqichma-bosqich joriy etilmoqda (Qaror, 2020). Bu esa hisob siyosatining tarmoqlar kesimida moslashuvchan bo'lishi va iqtisodiy tarmoqlar bo'yicha alohida hisob siyosatini yuritish masalasi hozirgi kunda dolzarb bo'lib qolmoqda. Shu asnda, turli iqtisodiy tarmoqlarda hisob siyosatini yuritishning ilmiy qarashlari va talqinlarini o'rganish, ularning o'ziga xosliklarini aniqlash hamda xalqaro tajribaga asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish taqozo etadi.

Korxonalarda hisob siyosati yuritish – bu har bir korxonaning faoliyat sohasi va turi, ishlab chiqarish jarayoni va xususiyati, iqtisodiy muhiti hamda boshqaruv strategiyasiga muvofiq tanlagan buxgalteriya usul va qoidalari tushuniladi. Shuningdek, Kieso, Weygandt va Warfield iqtisodchi olimlarning ta'kidlashicha, “Korxonaning hisob siyosati – bu moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va taqdim etishda qo'llaniladigan aniq tamoyillar, asoslar, konvensiyalar, qoidalar va amaliyotlar majmuidir. Hisob siyosati moliyaviy hisobotlarning korxonada moliyaviy natijalari va ahvolini haqqoniy va xolis aks ettirishini ta'minlash uchun zarur hisoblanadi” deya ifodalashgan.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqadigan bo'lsak, hisob siyosati bu – buxgalteriya hisobi tizimida korxonada yoki tashkilotning moliyaviy hisobotlarini yuritish, hisobga olish usullari, tamoyillari va qoidalarini belgilovchi asosiy hujjatlardan biri hisoblanadi. Iqtisodiy tarmoqlar kesimida esa hisob siyosati turlicha bo'lishi mumkin, chunki har bir tarmoqning ishlab chiqarish jarayoni, daromad keltirish mexanizmi, xarajat tuzilmasi va soliq majburiyatlari farqlanadi.

Shu bilan birgalikda, alohida hisob siyosati esa korxonada yoki tashkilotning moliyaviy hisobotini yuritishda hamda buxgalteriya hisobini tashkil etishda qo'llaniladigan, aynan o'sha korxonaning faoliyat sohasi, tarmoq xususiyatlari va sharoitlariga moslashtirilgan tamoyillar,

usullar hamda qoidalar majmuasi hisoblanadi. Ya'ni korxonada o'z buxgalteriya ishlarini qanday yuritishini belgilovchi "ichki qoidalar to'plami", biroq bu qoidalar umumiy qonunlar va standartlarga zid bo'lmasligi lozimdir.

### Adabiyotlar sharhi.

Iqtisodiy tarmoqlarning alohida hisob siyosatini yuritish masalasi amaliy va nazariy jihatdan bir necha iqtisodchi olimlar tomonidan sohalar jihatdan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Qishloq xo'jaligi, sanoat, xizmat ko'rsatish yoki moliya-bank sektori kabi sohalarining har biri o'ziga xos ishlab chiqarish jarayoni, daromad va xarajatlarni e'tirof etish usullari, aktivlarni baholash mezonlari hamda moliyaviy risklari bilan farqlanadi. Shu bois har bir tarmoq uchun yagona umumiy yondashuvdan ko'ra, maxsus ishlab chiqilgan, moslashuvchan va sohaga xos hisob siyosati qo'llash samaradorlikni oshiradi.

Mahkamova (2021) o'zining "Iqtisodiy tarmoqlarda moliyaviy hisobning xususiyatlari" tadqiqotida korxonada hisob siyosatini tarmoq sharoitiga moslashtirish zarurligini asoslaydi. Muallif ta'kidlashicha, ishlab chiqarish jarayoni, soliq tizimi va mavsumiylik omillari hisob siyosatiga bevosita ta'sir qiladi. Shuningdek, tadqiqotida milliy amaliyot misollari ifodalanilgan, biroq muallif xalqaro standartlar bilan to'liq taqqoslash juda oz tahlil qilgan.

Yana bir iqtisodchi olim Yo'ldoshev (2020) "Milliy buxgalteriya standartlarini xalqaro standartlarga moslashtirish" o'quv qo'llanmasida BHMS va IFRS talablari orasidagi farqlarni yoritadi. Unga ko'ra, moslashtirish jarayonida korxonada hisob siyosatini qayta ko'rib chiqish muhimligini ifodalagan. Shu bilan birgalikda izlanishda normativ-huquqiy tahlil chuqur amalga oshirgan bo'lsada, amaliy misollar kam ifodalanilgan.

Islomov (2019) "Qishloq xo'jaligida buxgalteriya hisobi" nomli qo'llanmada mavsumiy hosildorlik, biologik aktivlar bahosi va IFRS 41 talablariga mos hisob siyosatini ishlab chiqish bo'yicha tavsiyalar bergan. Shuningdek, tadqiqotida hisob siyosati qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan.

Nobes va Parker (2020) "Comparative International Accounting" kitobida turli mamlakatlardagi hisob siyosati amaliyotlari taqqoslangan. Mualliflar milliy soliq tizimi va iqtisodiy muhitning o'ziga xosligi bu siyosatga kuchli ta'sir qilishini qayd etishgan. Kitobda qiyosiy tahlil keng qamrovda ko'rib chiqilingan.

### Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqot nazariy tahlil, qiyosiy tahlil va empirik tahlil usullariga asoslandi. Normativ-huquqiy manbalar sifatida O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonunlari, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan milliy buxgalteriya standartlari o'rganildi. Xalqaro tajriba sifatida IFRS va IAS standartlari tahlil qilindi. Empirik qismda qishloq xo'jaligi, sanoat, xizmat ko'rsatish va moliya sektoridagi korxonalar hisob siyosati hujjatlari va moliyaviy hisobotlari o'rganildi. Shuningdek, statistik ma'lumotlar asosida jadval va diagrammalar tuzildi.

### Tahlil va natijalar muhokamasi.


O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va infratuzilma sohalarining diversifikatsiyasi alohida hisob siyosatini yuritishning amaliy ahamiyatini oshirib bormoqda. Har bir tarmoq va soha o'zining texnologik jarayoni, moliyaviy oqimlari va risk omillari bilan farqlanadi, bu esa o'z navbatida umumiy yondashuvdan ko'ra, sohaga moslashtirilgan hisob siyosatini talab qiladi.

Alohida hisob siyosatni shakillantirishda avvalambor normativ-huquqiy asoslarni takomillashtirish ya'ni:

- hozirgi kunda milliy buxgalteriya hisobining BHMS standartlari tarmoqlar kesimida umumiy qoidalarni belgilaydi, ammo ayrim sohalarda (masalan, transport, energetika, qishloq xo'jaligi) maxsus ko'rsatmalar yetarli emas.

- xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) tarmoqlar bo'yicha aniq metodologiyani to'liq ochib bermaydi, biroq ularning printsiplari hisob siyosatining shaffofligi va solishtirilishini ta'minlaydi.

Shu asnoda, xorijiy va mahalliy tajriba taqqoslaydigan bo'lsak, xorijiy ilmiy ishlarda (Kieso, Weygandt, Warfield, 2019; Nobes va Parkerlar, 2020) hisob siyosatini tanlashda kompaniya strategiyasi va investorlar talablariga moslashish ustuvor hisoblashadi. Mahalliy iqtisodchi olimlarimiz (Mahkamova, 2021; Yo'ldoshev, 2020; Islomov, 2019) esa soliq tizimi va milliy qonunchilik talablariga moslashishga ko'proq urg'u berishgan.



**1-rasm. Alohida hisob siyosatini yuritish konsepsiyasining uchta asosiy foydasi**

*Manba: muallif ishlanmasi.*

Daromad va xarajatlarni aniq ajratishda alohida hisob yuritish orqali har bir tarmoq faoliyatidagi daromad va xarajatlarni mustaqil ravishda kuzatish mumkin bo'ladi. Bu orqali moliyaviy oqimlarni chalkashtirmasdan, har bir yo'nalishning rentabelligini aniqlash osonlashadi. Bu boshqaruv qarorlarini aniqroq qilishga yordam beradi.

Samadorlikni xolis baholashda tarmoqning haqiqiy samaradorligini baholash uchun xolis ko'rsatkichlar olinadi. Shu asnoda subyektiv fikrlar yoki umumiy ko'rsatkichlar o'rniga, real va mustaqil raqamlar asosida tahlil yuritish imkoniyati paydo bo'ladi.

Har bir loyiha bo'yicha aniq daromad-xarajat hisoblari mavjud bo'lgani uchun investorlar va menejerlar qaror qabul qilishda tezroq va to'g'riroq xulosaga kelishadi.

**1-jadval**

**Tarmoqlar bo'yicha hisob siyosatining asosiy farqlari**

Tarmoq	Asosiy xususiyatlar	IFRS talablari	Milliy standartlar talablari
Qishloq xo'jaligi	Biologik aktivlar, mavsumiy hosildorlik	IAS 41 – Agriculture	BHMS 6 – Qishloq xo'jaligi hisobi
Sanoat	Tugallanmagan ishlab chiqarish, amortizatsiya	IAS 2 – Inventories	BHMS 5 – Ishlab chiqarish hisobi
Xizmat ko'rsatish	Daromadni e'tirof etish muddati	IFRS 15 – Revenue	BHMS 8 – Xizmat daromadlari hisobi
Bank-moliya	Moliyaviy vositalar, kredit risklari	IFRS 9 – Financial Instruments	BHMS 10 – Bank hisobi

*Manba: muallif ishlanmasi.*

Shuningdek, alohida hisob siyosatini yuritish samaradorligi bevosita tarmoqning iqtisodiy xususiyatlari va normativ-huquqiy bazaning moslashuvchanligiga bog'liq. Shuningdek, tarmoqqa mos hisob siyosatini joriy etish korxonada moliyaviy boshqaruvini optimallashtiradi va investitsion jozibadorlikni oshiradi.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, hisob siyosatini xalqaro standartlarga moslashtirish tarmoq kesimida turlicha qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Qishloq xo'jaligida mavsumiylik omili tufayli moliyaviy natijalar yildan-yilga keskin o'zgaradi. Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish jarayoni uzluksizligi sababli zaxiralar va asosiy vositalar hisobi muhim ahamiyatga ega. Xizmat ko'rsatishda esa mijozlar bilan tuzilgan shartnomalar muddati daromad hisobini aniqlashda asosiy mezon bo'ladi. Bank va moliya sektorida esa kredit risklarini baholash va zaxira hisobini yuritishning to'g'ri tanlanishi moliyaviy barqarorlik uchun muhimdir.

Izlanish natijalariga ko'ra, iqtisodiy tarmoq va sohalar bo'yicha hisob siyosatining asosiy farqlari quyidagilarga bo'lish mumkin:

1. Qishloq xo'jaligi tarmog'i – mavsumiylik, hosildorlik va biologik aktivlarni baholash usullarining farqliligi.

2. Sanoat tarmog'i – ishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlash, tugallanmagan ishlab chiqarish hisobini yuritish va amortizatsiya siyosati.

3. Xizmat ko'rsatish sohasi – daromadlarni e'tirof etish muddati va ko'rsatkichlarni baholash mezonlari.

4. Bank-moliya sektori– moliyaviy vositalar baholash, kredit risklarini hisobga olish va zaxira siyosatidir.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda tarmoqlar kesimida hisob siyosatini tanlashda ko'proq moslashuvchan yondashuv qo'llaniladi, bu esa investitsion jozibadorlikni oshiradi.

### **Xulosa va takliflar.**

Tadqiqot natijasida xulosa qiladigan bo'lsak, har bir tarmoqning o'ziga xos hisob siyosati mavjud va bu korxonaning moliyaviy natijalariga bevosita ta'sir qiladi. Shuningdek, xalqaro standartlarga moslashish jarayonida ayrim normativ va metodologik bo'shliqlar mavjuddir. Kadrlar malakasini oshirish orqali alohida hisob siyosatini samarali yuritishga erishish mumkin.

Har bir tarmoq uchun alohida metodik qo'llanmalar ishlab chiqish hamda xalqaro standartlarni milliy amaliyotga moslashtirish bo'yicha ishchi guruhlar tashkil etish lozimdir. Shu bilan birgalikda, korxonalarda buxgalterlar va auditorlar malakasini oshirish dasturlarini kengaytirish va moliyaviy hisobotlarda shaffoflikni ta'minlash uchun zamonaviy axborot tizimlarini joriy etish darkordir.

Izlanish va o'rganish natijasida, hisob siyosati iqtisodiy tarmoqlarga mos ravishda farqlanadi va bu farqlar tarmoqning iqtisodiy xususiyatlariga bog'liqdir. Yuqoridagi mulohazalarni inobatga olib, xalqaro standartlarga moslash jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshirilishi kerak. Buning natijasida har bir tarmoq uchun optimal alohida hisob siyosatini ishlab chiqish moliyaviy shaffoflikni ta'minlaydi.

### **Adabiyotlar/Jumepamypa/Reference:**

Qaror (2020) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "Buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot tizimini isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror.

Islomov, M. (2019). *Qishloq xo'jaligida buxgalteriya hisobi*. Toshkent: O'quv qo'llanma.

Kieso, D., Weygandt, J., & Warfield, T. (2019). *Intermediate Accounting*. Wiley.

Mahkamova, N. (2021). *Iqtisodiy tarmoqlarda moliyaviy hisobning xususiyatlari*. Toshkent: Iqtisod-Moliya nashriyoti.

Nobes, C., & Parker, R. (2020). *Comparative International Accounting*. Pearson

Yo'ldoshev, A. (2020). *Milliy buxgalteriya standartlarini xalqaro standartlarga moslashtirish*. Toshkent: Fan nashriyoti.